

NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHNI XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Turobov Asilbek Shomirzayevich

Toshkent davlat transport universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 4 -kurs talabasi

Tel: +998 90 096 19 69. **el.pochta:** asilbekturobov3@gamil.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14452348>

Annotatsiya. Maqolada nogironlar va nogiron bolalarni ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiya qilish ularning xalqaro huquqdagi himoyasi bosgichlari tahlil qilingan. Xalqaro huquqiy jamiyatning nogironlarga bo'lgan e'tibori va nogironlarni huquqiy jihatdan olib borilayotgan ishlar atroflicha o'rganilgan. Nogironlarning xalqaro doiradagi huquqlarini to'laqonli himoya qilish va ularga sharoitlar yaratib berish ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Nogironlar, ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiya, psixologik tashhis, xalqaro huquqiy himoya.

INTERNATIONAL LEGAL REGULATION OF SOCIAL PROTECTION OF PEOPLE WITH DISABILITIES

Abstract. The article analyzes the socio-psychological rehabilitation of people with disabilities and children with disabilities, the foundations of their protection in international law.

The attention of the international legal community to people with disabilities and the work carried out in the legal sphere of people with disabilities are studied in detail. The full protection of the rights of people with disabilities in the international framework and the creation of conditions for them are considered.

Keywords. People with disabilities, socio-psychological rehabilitation, psychological diagnosis, international legal protection.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ИНВАЛИДОВ

Аннотация. В статье анализируются социально-психологическая реабилитация инвалидов и детей с ограниченными возможностями, а также их защита по международному праву. Внимание международного юридического сообщества к инвалидам и юридические вопросы инвалидов тщательно изучены. Рассмотрены вопросы полной защиты прав инвалидов в международных рамках и создания для них условий.

Ключевые слова: Инвалиды, социально-психологическая реабилитация, психологическая диагностика, международно-правовая защита.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni xalqaro huquqiy tartibga solish, global miqyosda nogironlar huquqlarini himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida ko'plab xalqaro shartnomalar va tashabbuslar mavjud. Nogironlarning xalqaro huquqi" deganda, nogironlar huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan xalqaro huquq normalari va konvensiyalar tushuniladi. Xalqaro huquq nogironlarning asosiy huquqlarini ta'minlash va ularga teng imkoniyatlar yaratish maqsadida bir qator standartlar va me'yorlarni ishlab chiqqan.

Yurtimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatimizning to'lagonli a'zosi ekanliklarini ifoda etish maqsadida turli tadbir va islohotlar doimiy amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2017-yil 1-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning imzolanishi Davlatimiz tomonidan kuchli va manzilli ijtimoiy himoya siyosati olib borilayotganining yaqqol isbotidir. Ammo har sohada bo'lgani kabi nogironligi bo'lgan shaxslarning muammolarini hal qilishda, xususan bolalar ta'limida bir gator kamchiliklar mavjud. Mazkur kamchiliklar borasida O'zbekiston Respublikasi

Birinchi xonimi-"Zamin" fondi Vasilik Kengashi raisi Ziroat Mirziyoyeva Jahon bolalar kuniga bag'ishlangan xalqaro forumda so'zlagan nutqida " nogironligi bo'lgan bolalar ta'limi masalasi hanuzgacha juda achinarli ahvolda qolmoqda. Bugun fursatdan foydalanib, ushbu bolalarga ham boshqa bolalar kabi keng imkoniyat va sharoit yaratish, ularning huquqlarini ta'minlash o'ta muhim masala ekanini ta'kidlamochim. Va nafaqat davlat idorasi mutasaddilari, balki butun jamoatchilikni mazkur masalaga jiddiy mas'uliyat bilan qarashga chaqirib golaman

Chunki har bir bolaning o'zligi bor. Bolalar har hil bo'lgani bilan ularing huquqlari teng bo'lishi lozim" - deya, ta'kidladi. Chindan ham nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatimizdan ayri bo'lmay ulg'ayishida ta'lim tizimida islohotlar, keng jamoatchilikning e'tibori va ko'magi zarurdir.

Ma'lumki, imkoniyati cheklangan bolalar, asosan, maktab-internatlarda tarbiyalanadi, maxsus ta'lim oladi, oz imkoniyatlari darajasida ijodiy-texnik mehnat bilan shug'ullanadi. Ayni paytda ular qo'shimcha ta'lim bilan ham shug'ullanadilarki, bu esa ularning sog'lig'i, psixodinamikasiga, ilm olishiga ta'sir ko'rsatadi

Zamonaviy sharoitda inklyuziv ta'lim barcha bolalar uchun istiqbolli ta'lim shaklidir, chunki inklyuziv ta'lim jarayoni har bir bolaning ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim faoliyatini yetarli darajada tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, o'quvchilarni ijtimoiylashuv imkoniyatlari, ularning jamiyat bilan aloqa qilish usullari sezilarli darajada kengayadi, har bir bolani jamiyatga qo'shish uchun zarur shart-sharoitlar shakllantiriladi.¹

Ta'lim olish huquqi insonning eng muhim ijtimoiy-madaniy huquqidir, chunki ta'lim inson taraqqiyotiga eng katta ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijtimoiy hayot sohasidir.

Hozirgi vaqtda nogironlarning ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatlari huquqiy, tashkiliy, texnik, moliyaviy va ijtimoiy xarakterdagi barcha muammolar mavjudligi bilan bog'liq.²

Ko'plab yillar davomida inklyuziv ta'limning global maqsadi - uning asosini inklyuziv madaniyat tashkil etgan chinakam gumanistik jamiyat sifatida inklyuziv jamiyatni yaratishga hissa qo'shadigan inklyuziyaning nazariy asoslarini amaliy tatbiq etishning samarali strategiyasini topish muammolari ko'plab xorijiy ilmiy va pedagogik munozaralar bo'lib kelgan.

¹ Bruner J. S. Personality dynamics and the process of perceiving. In: R. R. Blake & G. V.

² Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. — Педагогика - Пресс, 1999. — С. 173.

Hozirgi kunga qadar samarali xalqaro hamkorlik va o'qituvchilarning ilmiy-amaliy faoliyati natijasida inklyuziv ta'limni insoniyatning global rivojlanishining muhim bosqichi sifatida amalga oshirishda umumiy samarali yo'nalishlar ishlab chiqilgan.³

Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi,⁴ "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturi to'g'risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish ham shular jumlasidandir. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish umumiy o'qitish tizimi bilan inklyuziv ta'limni integratsiyalash, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Umumjahon miqyosida alohida e'tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko'maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumiy o'qitish tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik psixologik jihatlari, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a'zosi sifatidagi o'rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta'minlash hamda qo'llab-quvvatlash, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o'rin egallamoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy mamlakatlarning inklyuziv ta'limni omalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni nogiron bolalarga nisbatan jamiyat mafkurasining o'zgarishi, ularning ta'lim masalalariga e'tiborning kuchayishi va rivojlanish darajasini bilan bog'liq.⁵

Inklyuzivlik mafkurasi, bir tomondan, insonlar xilma-xilligi va odamlar o'rtasidagi farqlarning qadr-qimmatini anglash natijasida shakllangan. Boshqa tomondan, inklyuziya konsepsiyasi mazmunining ta'rifiga "individual model" deb belgilangan oldingi yondashuvdan farqli o'laroq, inklyuziyaning "ijtimoiy modeli" deb nomlangan toifali apparat sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

³ Холл С. История одной кучи песку // Холл С. Очерки по изучению ребенка. - Б. м.: Пучина, 1925. С.125-141.

⁴ Wallon, H. (1957/1968). La mentalité primitive et la raison dans l'oeuvre de Le'vy-Bruhl. *Enfance*, 21, 111-117

⁵ Bühler, Karl, *Psychologie*, * Meckesheim (Rhein-Neckar-Kreis) 27. 5. 1879, † Los Angeles (Kalifornien) 24. 10. 1963

Inklyuzivlik har bir insonning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, jismoniy salomatlik bilan bog'liq mumkin bo'lgan cheklovlardan qat'i nazar, potensialni ochishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim (Inklusif- shu jumladan, Include - men xulosa qilaman, o'z ichiga oladi, jalb qilaman) ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi, bu nogironlar jamiyatdagi faol faoliyatga jalb qilinishi mumkin va bo'lishi kerak degan tushunchaga asoslanadi.⁶ Inklyuzivlik siyosati har qanday boshqa shaxsning (boshqa irq, din, madaniyat, nogiron) jamiyatga jalb etilishini ta'minlaydigan jamiyat va ijtimoiy institutlarni o'zgartirish zarurligini e'lon qiladi. Shu bilan birga, institutlarning bunday o'zgarishi jamiyatning har bir a'zosining (shu jumladan alohida ehtiyojli shaxslarning) ehtiyojlarini qondirishga, ularning huquqlari tengligini ta'minlashga va hokazolarga yordam beradi deb taxmin qilinadi.⁷

Chunonchi, har yili "3-dekabr - Xalqaro nogironlar kuni" respublika bo'ylab turli bayramona dasturlar, konsert tomoshalar, anjumanlar, hayriya ishlari kabi tadbirlar orgali keng nishonlanishi nafaqat davlat siyosati, balki odamiylik mulkidashox-sulton sanalgan xalqimizning azaliy qadriyatlarimizga sodiqligi ifodasidir. Azal-azaldan mehr-oqibatli millat sifatida yigilganni suyash, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, birdamlik insoniy burch deb bilgan ulug' fazilatli xalqimiz. Qonimizga, jonimizga singib ketgan xalqimizga xos bag'ri kenglik, mehribonlikdan beixtiyor faxr-iftixor tuyasan kishi. Binobarin, mehrni hamma narsadan ustun qo'ygani bois, o'zbek nomi, millat sha'ni yuksalib kelayotir.

Bunday me'yorlar, odatda, nogironlarga nisbatan diskriminatsiyani kamaytirish, ularning huquqlarini hurmat qilish va ularni jamiyatda to'liq ishtirok etishga imkon berish uchun mo'ljallangan. Bularning eng muhimlari quyidagilar:

BMT 2006-yilda Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani (CRPD) qabul qildi.

Ushbu konvensiya nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni va ularning huquqlarini ta'minlashni maqsad qilgan. Unga ko'ra, davlatlar nogironlarni teng huquqli va ijtimoiy jihatdan faollashgan a'zolar sifatida tan olishlari, ularga ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash, va boshqa asosiy huquqlarni taqdim etishlari lozim.

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasi (2006). Ushbu konvensiya nogironlarga qarshi diskriminatsiyani bartaraf etishga va ularga imkoniyatlarni tenglashtirishga qaratilgan. Unga ko'ra, davlatlar nogironlarni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun zarur sharoitlar yaratishlari kerak. Konvensiya nogironlarning erkinligini, mustaqilligini, hamda jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan.

BMT Inson Huquqlari Kengashi. BMT Inson huquqlari Kengashi ham nogironlar huquqlarini himoya qilishga e'tibor qaratadi. Kengash, mamlakatlar o'rtasida nogironlarga nisbatan huquqiy me'yorlarning amalga oshirilishini nazorat qilish, ularning huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlatlar o'rtasida maslahatlashuvlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Huquqlar To'g'risidagi Xalqaro Pakti. 1966-yilgi Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar To'g'risidagi Xalqaro Pakti (ICESCR) nogironlar huquqlarini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy asoslarni yaratadi.

⁶ **G'oziyeva Sh.B** Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI 2-bosqich tayanch doktoranti

⁷ Renzaglia, A. The impact of teacher education on the beliefs, attitudes, and dispositions of preservice special educators / A. Renzaglia // Teacher Education and Special Education. - 1997. - Vol. 20. - P. 360-377.

Paktga qo'shilgan davlatlar, o'z hududlarida nogironlar uchun ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish majburiyatini oladilar.

Milliy va Mahalliy Huquqiy Mexanizmlar. Ko'plab davlatlar xalqaro standartlarga mos ravishda milliy qonun va siyosatlarni ishlab chiqishadi. Misol uchun, ayrim davlatlarda nogironlar uchun maxsus ta'lim, ish bilan ta'minlash va sog'liqni saqlash tizimlari mavjud bo'lib, ular davlatning ichki qonunlari va xalqaro majburiyatlariga asoslanadi.

Nogironlar uchun ijtimoiy himoya tizimlari: Moliya yordam: Nogironlarga jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish uchun moliyaviy yordamlar taqdim etiladi. Tibbiy va psixologik yordam: Nogironlarning sog'lig'ini saqlash va qayta tiklash uchun zarur tibbiy yordamlar taqdim etiladi. Ta'lim va ish bilan ta'minlash: Nogironlar uchun maxsus ta'lim dasturlari va kasb-hunar ta'limlari, shuningdek, ish bilan ta'minlash dasturlari ishlab chiqiladi.

Nogironlar uchun teng imkoniyatlar yaratish. Xalqaro huquq, shuningdek, nogironlarni jamiyat hayotining barcha sohalarida teng imkoniyatlarga ega qilishga qaratilgan.

Bunga arxitektura, transport, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridagi infratuzilmani nogironlar uchun moslashtirish hamda ular uchun qo'shimcha resurslar taqdim etish kiradi.

Xulosa: Nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni xalqaro huquqiy tartibga solish, ularning huquqlarini ta'minlash va jamiyatda teng imkoniyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun muhim huquqiy vositalardan biridir. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan shartnomalar va dasturlar nogironlarning huquqlarini himoya qilishda asosiy rol o'ynaydi.

Davlatlar esa bu huquqlarni amalda qo'llab-quvvatlash orqali nogironlarni jamiyatda teng va faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlashlari zarur. Men ushbu maqolada nogironlarning huquqini yanada himoya qilish uchun ularning ro'yxati, ijtimoiy himoyasini ta'minlashda psixologik jarayonini sinchkovlik va tizimni yanada takomillashtirish ustida ishlashni taklif etaman. Har bir alohida etibor qilinadigan shaxs bilan individual ishlash ularning xalqaro huquqda huquqlarini yanada e'tirof etishni taklif qilaman.

REFERENCES

1. <https://darvo.uz/2020/11/19/ziroat-mirziyoyeva-bolalar-talimiga-bagishlab-otkazilgan-xalqaro-veb-forumda-nutq-sozladi/>
2. Shavkat Mirziyoev O'zbekiston xalqiga 3 dekabr - Xalkaro nogironlar kuni munosabati bilan murojaat yulladi. Tabrik matni Prezident matbuot xizmati evlonidan. <http://club-edu.tambov.ru/methodic/fio/p4.doc> - Ivanova O.G., Orlov B.B., Radchenko I.M., Saburova A.V. Podgotovka multimediyных materialov
3. Sozdanie multimediyных prezentatsiy. Uchebno-metodicheskoe posobie (doc-fayl). Tambov 2002 g.
4. Jurayeva, S. (2020). Maxsus ta'lim jarayonida pedagogi texnologiy alarning samaradorligi. Arxiv Nauchных Publikatsiy JSPI.
5. Nabiyeva, G. A. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari. Scientific progress, 1